XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 10-aprel VII-9-55-4-0-K/25 Qashqadaryo viloyati

Viloyatdagi maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun majburiy to‘lov tariflarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasi, “Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4845-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi davlat muassasasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 10-yanvardagi 8-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 5-avgustdagi 01-20-10/05-38/2081-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 16^2- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi davlat muassasasi viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 10-yanvardagi 8-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 5-avgustdagi 01-20-10/05-38/2081-sonli xatlari hamda viloyatdagi maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun majburiy to‘lov tariflarini belgilash yuzasidan Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi davlat muassasasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i J.Usmonovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatdagi yuridik shaxslar uchun maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun majburiy to‘lov tariflari ***ilova***ga muvofiq ma’qullansin.

3. Ushbu qaror viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kirishi belgilansin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish hamda ijrosini ta’minlash xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  XUSHMURODOVA ISMIGUL BERDIMURODOVNA

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 10-apreldagi
VII-9-55-4-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Viloyatdagi yuridik shaxslar uchun maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun majburiy to‘lov TARIFLARI

so‘mda

T/R	Tashkilot nomi	1 m^3 uchun		1 tonna uchun	
		(QQS siz)	(QQS bilan)	(QQS siz)	(QQS bilan)
1	Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi Qashqadaryo hududiy boshqarmasi davlat muassasasi	18 884	21 150	45 834	51 334